

Uzbekistan Airways bolalar sayohat to'plami TravelPlus Airline Amenity Awards mukofotida eng yaxshi deb topildi

2024 31 May

Uzbekistan Airways xalqaro aviaqatnovlarida yosh yo'lovchilarga taqdim etiladigan bolalar to'plamlari 2024-yil natijalariga ko'ra TravelPlus Airline Amenity Awards'ning nufuzli mukofotlariga sazovor bo'ldi.

Uzbekistan Airways bolalar to'plami bu ijodkorlik va o'yinlar uchun mo'ljallangan yorqin hamda ko'ngilochar narsalar bilan to'ldirilgan sariq, ko'k yoki yashil rangli ryukzaklarni o'z ichiga oladi. Bolalar ularning ichida rangli qalamlar to'plamini, mantiqiy vazifalar, boshqotirmalar va jumboqlar bilan to'ldirilgan, turli ma'lumotlarga ega bo'yash kitoblarini, kalit zanjirini, shuningdek jumboqli kubiklarni yoki qiziqarli o'yinni topadilar. Ushbu to'plam Kaelis bilan hamkorlikda ishlab chiqarilgan.

TravelPlus Airline Amenity Awards mukofotlari Britaniyaning "TravelPlus" sayohat nashri tomonidan 2006-yilda ta'sis etilgan. O'shandan beri har yili eng yaxshi sayohat to'plamlari yo'lovchilarning fikriga asosan taqdirlanadi va jarayon mustaqil hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi. Bu yilgi taqdirlash marosimi 28-may kuni Gamburgda World Travel Catering & Onboard Services Expo ko'rgazmasi doirasida bo'lib o'tdi.

Uzbekistan Airways servis mahsulotlarini ishlab chiqish va kengaytirish orqali yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga faol intilmoqda. Bolalarimizning sayohat to'plamlari shunday yuqori reytingga ega bo'lganidan faxrlanamiz. Bizning maqsadimiz barcha yoshdagi yo'lovchilar uchun sayohatni qulay va qiziqarli qilishdir.